

“BIR KAMAR, BIR YO‘L” TASHABBUSI DOIRASIDA O‘ZBEKISTON–XITOIY IQTISODIY HAMKORLIGINING AMALIY NATIJALARI.

Matyoqubov Matyoqub Marksovich

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
“Xalqaro huquq” fakulteti, 2 - bosqich talabasi,
matyoqub206@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur amaliy bo‘limda “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Xitoy investitsiyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ko‘rsatgan real ta’siri statistik va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI), yalpi ichki mahsulot (YAIM), YAIM o‘sinh sur’atlari, aholi jon boshiga YAIM hamda tashqi savdo ko‘rsatkichlari (eksport, import va savdo ochiqligi) asosiy indikatorlar sifatida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Bir kamar, bir yo‘l, Xitoy investitsiyalari, amaliy tahlil, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI), YAIM, tashqi savdo, iqtisodiy o‘sinh, infratuzilma, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Mazkur bo‘lim “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusining O‘zbekistonda qanday real iqtisodiy o‘zgarishlar keltirib chiqarganini amaliy ma’lumotlar asosida tahlil qiladi. BRI doirasidagi investitsiya oqimlari, infratuzilma loyihalarining natijalari, transport va energetika tizimidagi yangilanishlar hamda Xitoy kapitalining mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan amaliy hissasi statistik dalillar bilan yoritiladi. Ushbu tahlil rasmiy ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va sektorlar kesimidagi real iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida olib borilib, BRI tashabbusining O‘zbekiston uchun qanday imkoniyat yaratgani va qanday cheklovlar yuzaga keltirganini aniq faktlar bilan ochib beradi. Tahliliy jarayonda rasmiy davlat organlarning statistikasi, Jahon bank va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari, shuningdek O‘zbekiston va Xitoy tomonidan amalga oshirilgan yirik iqtisodiy loyihalarining real natijalari asos qilib olinadi. BRI doirasida 2013 – 2024 yillar davomida investitsiya hajmi, ularning taqsimoti, yangi infratuzilmalarning ishga tushirilishi va mintaqaviy savdo oqimlaridagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlar turli xil usullar asosida tahlil qilinadi. Ushbu bo‘limda nafaqat ijobiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki Xitoy investitsiyasining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi xavf va cheklovlari ham tahlil qilinib boriladi. BRI loyihalarining samaradorligi transport xarajatlarining qisqarishi, logistika imkoniyatlarining kengayishi, energetik barqarorlikning oshishi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarning integratsiya va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kabi real ko‘rsatkichlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, amaliy tahlil O‘zbekistonning BRI loyihalaridan olgan



iqtisodiy foydasi, strategik ustunliklari va uzoq muddatli rivojlanish darajasini turli xil asoslangan dalillar bilan ochib beriladi.

Ushbu bo‘limda asosiy e’tiborni BRI investitsiyalari nafaqat kapital oqimi sifatida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, balki infratuzilmaning quvvatini kengayishi, transport xarajatlarining qisqarishi, energetik barqarorlikning oshishi kabi chuqurroq makroiqtisodiy natijalarni qanday shakllanishiga qaratiladi. Shuningdek, Xitoy investitsiyalarining kutilayotgan ijobiy ta’siri bilan birga, iqtisodiy xavfsizlik, qarz barqarorligi va ekologik xavflar kabi omillar ham real misollarga tayangan holda tahlil qilinadi.



125

BRI tashabbusining O‘zbekiston uchun qanday amaliy imkoniyatlar yaratganini tushunish uchun avvalo Xitoy va O‘zbekistonning xalqaro investitsiyalarni qabul qilish darajasi, ya’ni FDI (net inflows, % of GDP) ko‘rsatkichlari tahlili muhimdir. Ushbu indikator mamlakatga kirayotgan to‘g‘ridan - to‘g‘ri investitsiyalar hajmini iqtisodiyot o‘lchamiga nisbatan baholaydi va investorlar uchun qanchalik jozibador muhit mavjudligini ko‘rsatadi. Grafik tahlilidan ko‘rinadiki, Xitoy va O‘zbekistonning

¹²⁵ [Foreign direct investment, net inflows \(% of GDP\) - China, Uzbekistan | Data](#)



FDI dinamikasi bir-biridan keskin farq qiladi va aynan shu farq BRI doirasidagi hamkorlikning iqtisodiy asosini shakllantiradi. Xitoyning FDI ulushi yillar davomida pasayib bordi, O'zbekistonning FDI ulushi esa past bo'lishiga qaramay, asta-sekin o'sib bordi. Bu ikki trendning qarama-qarshiligi mazkur loyihaning o'zaro manfaatli bo'lishiga sabab bo'ldi. Xitoyning FDI trendi: ichki bozorga investitsiya oqimi pasayib, kapital tashqi bozorga yo'naltirilmoqda. 1990 - yillarning boshidan 2000 - yillarning o'rtalarigacha Xitoyning FDI ulushi keskin o'sdi va 6% ga yaqin yuqori darajaga chiqdi. Bu davr Xitoyning "reform and opening-up" siyosatining eng faol bosqichi bo'lib, xorijiy kapital mamlakatga kuchli sur'atda kirib kelgan. Ammo 2005 - yildan keyin ushbu ko'rsatkich izchil ravishda pasayishni boshladi va 2020 - yillarga kelib 1% dan ham past darajaga tushdi. Bu pasayish ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz belgisi emas. Aksincha, Xitoy iqtisodiy modelining tubdan o'zgarishini aks ettiradi. Ichki bozor yetarlicha to'yindi, mehnat narxlari oshdi, ishlab chiqarish xarajatlari ko'tarildi va Xitoy endi kapitalni faqat ichkariga emas, balki chet davlatlarga eksport qiladigan iqtisodiyotga aylandi. Shu sababli Xitoyning ichki FDI kamayishi aslida uning outward FDI siyosati kuchayganini anglatadi. Bunda BRI strategiyasi aynan ana shu kapital eksportining asosiy tashqi yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonning FDI trendi: investitsion bo'shliq mavjud va kapital uchun katta bozor ochiq O'zbekistonning FDI ulushi grafikda ancha past darajada. 1995 - 2005 yillarda mamlakatga kirayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 0% - 1% atrofida bo'lgan. 2007 - 2017 yillar oralig'ida ko'rsatkich asta-sekin 1% - 2% gacha ko'tarilgan bo'lsada, sezilarli barqarorlik bo'lmagan. 2018 - yildan keyin islohotlar, valyuta liberallasuvi va ochiq iqtisodiyot siyosati tufayli tebranishlar kuzatilgan bo'lib, ayrim yillarda 2,5% dan yuqoriga chiqdi.¹²⁶

Ushbu past darajalar bir jihatni ko'rsatishi mumkin, O'zbekiston investitsiya yetishmovchiligi bo'lgan va kapital uchun ham kamchilik mavjud bo'lgan mamlakatlardan biri ekanligini anglatadi. Bu esa Xitoyning investitsiyalariga to'kiq mos tushadi, ya'ni u yerda infratuzlima talabi yuqori, energetikaning modernizatsiyaga ehtiyoji yuqori va transport tizimi ham bozor salohiyati tufayli keng rivojlanishi mumkinligini anglatadi. Yuqoridagi holatdan ikkita asosiy iqtisodiy xulosani olishimiz mumkin.

1. Xitoyda ortiqcha kapital bor(internal FDI pasaymoqda) – kapitalni tashqariga yo'naltirish eng maqbul yo'l hisoblanadi.
2. O'zbekistonda kapital yetishmaydi (FDI ulushi past) – investitsiyalar uchun ehtiyoj mavjud.

Bundan kelib chiqadiki, aynan BRI loyihasi ikkala mamlakat uchun ham ideal kesishadigan nuqta hisoblanadi. Xitoy kapitalni chiqaradi va O'zbekiston esa ushbu kapitalni qabul qiladi. Bu kabi iqtisodiy moslik O'zbekistonni BRI loyihasi uchun

¹²⁶ <https://data.worldbank.org>




ideal sherikka aylantiradi. Xitoy kompaniyalri uchun O'zbekiston ko'plab imkoniyatlar beradi, siyosiy barqarorlikka ega, mintaqaviy tranzit markazda joylashgan davlatdir. O'zbekiston uchun esa Xitoy investitsiyalari – infratuzilma, energetika va sanoat sohalari bo'yicha yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini beradi. Grafik tahlili orqali yana shuni bilib olishimiz mumkinki, Xitoyning ichki FDI oqimining pasayishi mamlakatni kapitalni eksport qiluvchi iqtisodiyotga aylantirgan bir paytda, O'zbekistonning past FDI darajasi ichki investetsiya bo'shlig'ining mavjudligini anglatadi. Shuning uchun ham BRI tashabbusi aynan O'zbekiston uchun juda mos va samarali investitsiya loyihasi bo'ldi.

GDP growth (annual %) - China, Uzbekistan

Country official statistics; National Statistical Organizations and/or Central Banks; National Accounts data files; Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD); Staff estimates; World Bank (WB)

License : CC BY-4.0



127

Xitoy va O'zbekistonning iqtisodiy quvvati, bozor salohiyati va BRI doirasidagi iqtisodiy asosi haqida real tasavvurga ega bo'lish uchun uchta asosiy ko'rsatkich zarurdir. Bular; YaIM, YaIM o'sish sur'ati va aholi jon boshiga YaIM bo'yicha tahlil qilish juda muhimdir. Ushbu ko'rsatkichlar ikki davlatning iqtisodiy modelinini farqalab turadigan asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Xitoy – global miqyosidagi ulkan bozor va kapital eksport qiluvchi iqtisodiyot, O'zbekiston esa tez o'sayotgan, investitsiyalar uchun keng imkoniyatlarga ega rivojlanayotgan bozor hisoblanadi.

¹²⁷ [GDP growth \(annual %\) - China, Uzbekistan | Data](#)



Shuning uchun ham bu ikk iqtisodiyotning bir – birini to‘ldirshi BRI hamkorligi uchun juda ham mos tushadi.

Ikki mamlakat o‘rtasida so‘ngi 10 yillik ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak;

Birinchidan, YaIM o‘lchami bo‘yicha Xitoy dunyoning eng katta iqtisodiyotlaridan biri bo‘lib, 18 trillion dollardan ortiq yalpi ichki mahsulotga ega ulkan bozorni tashkil etadi. Bu Xitoyning o‘z ichida yetarlicha kapitallashtirilgan iqtisodiyotga aylanganini va ortiqcha kapitalning endi tashqi bozorga oqayotganini anglatadi. O‘zbekiston esa ancha kichik, biroq tez o‘sayotgan iqtisodiyot bo‘lib, so‘nggi yillarda 90 milliard dollarga yaqin YaIMga ega bo‘lgan. YaIM hajmining bu farqi Xitoydan O‘zbekistonga kapital oqimining kuchayishini tabiiy holga aylantiradi, chunki Xitoy uchun O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirish xarajatlari past, investitsiya rentabelligi esa yuqoridir.

Ikkinchidan, YaIM o‘shish surati ko‘rsatkichlari ikki davlatning o‘shish dinamikasini keskin farqlantiradi. 2014–2024 yillar oralig‘ida Xitoyning o‘shish sur‘atlari 7 foizdan boshlab 4–5 foizgacha pasaygan bo‘lsa, O‘zbekiston bu davrda yiliga o‘rtacha 5–7 foizlik yuqori sur‘atlarda o‘shishni davom ettirgan. Xitoydagi sekinlashuv iqtisodiyotning yetilgan bosqichga kirgani, ichki bozorning to‘yinganligi va demografik bosim oshgani bilan izohlanadi. Bunga qarshi ravishda, O‘zbekistonning yuqori o‘shish sur‘atlari iqtisodiyotning transformatsiyasi, islohotlar, bozor ochiqligi va tashqi investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bilan bog‘liq. Bu farq shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hali iqtisodiy potentsialdan to‘liq foydalanmagan, ya‘ni “o‘sayotgan bozor” xususiyatiga ega, Xitoy esa “katta bozor” sifatida global kapitalning manbaiga aylangan.¹²⁸

Uchinchidan, aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichi ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar va tavakkalchilik profillarini aniqroq ko‘rsatadi. Xitoyda aholi jon boshiga daromad 12 ming dollardan yuqori bo‘lib, bu o‘rta daromadli tabaqa ulkan bozor yaratganini anglatadi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 2,200–2,500 dollar atrofida bo‘lib, ishchi kuchi arzon, ishlab chiqarish xarajatlari past va investitsiya qaytimi yuqori bo‘lgan bozor mavjudligini ko‘rsatadi. Past GDP per capita ko‘pincha infratuzilma loyihalarining rentabelligi yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi, chunki iqtisodiy samara bevosita transport, energetika va ishlab chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish bilan tez namoyon bo‘ladi.

Shu uch indikatorning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xitoydagi ortiqcha kapital tashqi bozorga yo‘naltirilayotgan bir vaqtda, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishni davom ettirish uchun aynan shu kapitalga ehtiyoj juda katta. Xitoyning ulkan bozor sifatidagi afzalliklari, O‘zbekistonning o‘sayotgan bozor sifatidagi potentsiali bilan birlashib, BRI doirasidagi hamkorlik uchun mukammal iqtisodiy muhit yaratadi. Xitoy investitsiyalari O‘zbekistonda yuqori rentabellik beradi; O‘zbekiston esa bu

¹²⁸ <https://data.worldbank.org>

investitsiyalar evaziga infratuzilma, energetika va transport loyihalarini rivojlantiradi, bu esa iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va xalqaro savdo zanjirlariga chuqurroq integratsiyani ta'minlaydi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Xitoydagi ortiqcha kapitalning tashqi bozorga yo'naltirilishi va O'zbekistonda iqtisodiy o'sish darajalarining yuqorligi BRI hamkorligini harakatga soluvchi asosiy omilga aylandi.

O'zbekistonning so'nggi yillarda tashqi savdo ko'rsatkichlari sezilarli tarzda o'sib bormoqda va bu jarayon BRI tashabbusi doirasida mamlakatga investitsiya jalb qilinishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rasmiy xalqaro manbalar - WITS (World Bank/UN Comtrade), World Bank Data va The Global Economy - ma'lumotlari asosida quyidagi aniq statistik holatlarni ko'rish mumkin. Birinchidan, O'zbekistonning eksporti yildan-yilga oshib bormoqda. WITS ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonning eksporti 21,017 million AQSh dollarini tashkil etgan (WITS, World Bank).¹²⁹ Bu raqam 2017–2020 yillar davridagi eksportdan sezilarli darajada yuqori bo'lib, iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinayotgani va tashqi bozorlar bilan integratsiya kuchayayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, import hajmi eksportga nisbatan ancha tez sur'atlarda o'smoqda. WITS statistikalariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonning importi 36,660 million AQSh dollariga yetgan. Importning bunday yuqori bo'lishi sanoat modernizatsiyasi, texnologik jihozlar xaridi, energetika uskunalari va infratuzilma uchun zarur bo'lgan texnikalarning ko'pligi bilan izohlanadi. Importning kattaligi iqtisodiyotning o'sish bosqichida ekanligini bildiradi va investitsion jarayonlar faol kechayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, eksportning 21 milliard dollarga, importning 36,6 milliard dollarga yetgani hamda savdo ochiqqligining 60,73% darajasida bo'lishi O'zbekistonning kuchli tashqi savdo faolligi va kengayib borayotgan iqtisodiyotga ega ekanini ko'rsatadi. Aynan mana shu jarayonlar BRI investitsiyalari uchun muhim asos bo'lib, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib keladi.

Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi haqida turli olimlar turli burchaklardan fikr yuritgan. Pethiyagoda Xitoyning ichki iqtisodiy modelidagi o'zgarishlar BRI'ning paydo bo'lishiga bevosita sabab bo'lganini ta'kidlasa, Kembayev mintaqaviy darajadagi siyosiy va iqtisodiy integratsiya bu tashabbusning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ekanini qayd qiladi. Har ikkala yondashuv aslida bir-birini to'ldiradi va BRI ni faqat transport loyihasi emas, balki kengroq strategik jarayon sifatida tushunishga yordam beradi. Pethiyagoda fikrining mohiyati shundan iboratki, Xitoyda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish modeli sezilarli darajada o'zgargan: ichki bozor to'yingan, ishlab chiqarish tannarxi oshgan, davlat ortiqcha kapitalni chetga chiqarish orqali iqtisodiy muvozanatni saqlashga majbur bo'lgan. Shunday sharoitda BRI Xitoy

¹²⁹ World Bank official website

uchun yangi bozorlar yaratish, infratuzilma orqali savdo yo'llarini qayta tiklash va xomashyo ta'minotini kafolatlash vositasiga aylangan. Oddiy qilib aytganda, Xitoy BRI orqali iqtisodiy o'sishni ichkaridan emas, balki tashqariga kengaytirish orqali qo'llab-quvvatlamoqchi bo'lgan. Bu fikr O'zbekiston kabi davlatlar uchun shuni anglatadiki, Xitoyning tashabbuslari ortida faqat siyosiy emas, balki aniq iqtisodiy zaruriyatlar ham yotadi.

Kembayev esa masalaga boshqacharoq, ya'ni mintaqaviy integratsiya nuqtai nazaridan qaraydi. U BRI ni Markaziy Osiyo davlatlarini iqtisodiy jihatdan birlashtiradigan, SCO yoki Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi kabi platformalar bilan bog'lab ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan tizim sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, BRI nafaqat yo'llar va portlar qurilishi, balki mintaqadagi davlatlar o'rtasida iqtisodiy bog'liqlikni kuchaytirish, savdo tartiblarini uyg'unlashtirish va yangi strategik sherikliklarni shakllantirish imkoniyatidir. Aslida, bu fikr O'zbekiston uchun juda muhim: infratuzilma loyihalari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular mintaqaviy iqtisodiy tizimlar bilan moslashgan bo'lishi kerak. Ikkala olimning yondashuvini birlashtirib ko'radigan bo'lsak, BRI ning asl mohiyati ancha aniq ko'rinadi. Xitoy tashabbusni ichki iqtisodiy bosimlarni yumshatish va yangi bozorlar topish uchun boshlagan bo'lsa-da, uning mintaqaviy darajada ishlashi ko'proq siyosiy va institutsional muvofiqlikni talab qiladi. O'zbekiston uchun bu nimani anglatadi? Birinchidan, Xitoydan kelayotgan katta infratuzilma investitsiyalari mamlakatning transport, energetika va sanoat imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, bu loyihalar mintaqaviy iqtisodiy tizimlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsa, O'zbekiston tranzit markaziga aylanish imkoniga ega bo'ladi. Uchinchidan, har qanday BRI loyihasida faqat iqtisodiy manfaatni emas, balki uzoq muddatli siyosiy xavfsizlik va shaffoflik masalalarini ham hisobga olish zarur.

Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun ham, Xitoyning o'zi uchun ham iqtisodiy jihatdan mantiqiy va strategik asosga ega. Xitoy iqtisodiy o'sishining sekinlashuvi, ichki bozorning to'yingani va kapitalni tashqariga chiqarish zarurati BRIning shakllantirgan bo'lsa, O'zbekistonning yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari, investitsiya bo'shlig'i va infratuzilma ehtiyojlari bu tashabbusni qabul qilish uchun qulay sharoit yaratdi. FDI, YaIM va savdo ko'rsatkichlari (eksport, import, savdo) shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston iqtisodiyoti tez modernizatsiya bo'layotgan, savdo aloqalari kengayib borayotgan va infratuzilmaga yirik sarmoya talab qiladigan bozorga aylanmoqda. Savdo ochiqligining 60% dan oshgani ham O'zbekistonning global savdoga faol kirayotganidan dalolat beradi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Xitoy ortiqcha kapitalni tashqi bozorlarga yo'naltirayotgan davlat, O'zbekiston esa tez o'sayotgan va kapitalni qabul qilishga tayyor iqtisodiyot sifatida o'zaro birbirini to'ldirmoqda. Shu bois BRI tashabbusi ikki davlat uchun ham o'zaro manfaatli hamkorlik modeli bo'lib, O'zbekistonning infratuzilma rivoji, savdo salohiyati va iqtisodiy integratsiyasiga kuchli turtki bermoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://data.worldbank.org>(Kirildi:13.11.2025).
2. <https://data.worldbank.org/assets> (Kirildi:13.11.2025).
3. World Bank official website. (Kirildi:13.11.2025).
4. https://oriens.uz/media/journalarticles/100_Allayorova_Leylo_Bahodirovna_679-688.pdf (Kirildi:14.11.2025).
5. <https://data360.worldbank.org/en/economy/UZB#economyAnalytics>(Kirildi:13.11.2025).
6. <https://data.worldbank.org/indicator/LP.LPI.OVRL.XQ> (Kirildi:15.11.2025).
7. [GDP growth \(annual %\) - China, Uzbekistan | Data](#)